



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmog‘da.


Jumladan, 2024-yil 1-yanvar holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 27 634 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 23 136 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi 74,9 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 71,6 foiz) tashkil etdi.

## Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 2024 yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda.*

### Faoliyat ko‘rsatayotgan


### Ro‘yxatdan o‘tgan




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbatan (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog‘liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda yashash va ovqatlanish (33 taga), axborot va aloqa (22 taga) oshganligini ko‘rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, qo‘shma korxonalar 14 taga ko‘paygan.



## Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	1 257	14,7 %	Pop tumani	327	16,3 %
shundan Davlatobod t.	342	16,5 %	Chust tumani	341	14,3 %
Yangi Namangan t.	306	15,9 %	Uychi tumani	286	17,3 %
Uchqo‘rg‘on tumani	454	23,6 %	Kosonsoy tumani	274	16,7 %
Chortoq tumani	391	22,3 %	Norin tumani	252	17,9 %
To‘raqo‘rg‘on tumani	377	20,5 %	Namangan tumani	250	14,5 %
Mingbuloq tumani	327	25,2 %	Yangiqo‘rg‘on tumani	242	16,5 %

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 27 634 tani tashkil etib, 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 1 725 taga oshganligini quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: savdo – 6 938 tadan 9 054 taga (o'sish 2 116 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 1 828 tadan 1 937 taga (o'sish 109 ta), yashash va ovqatlanish – 1 123 tadan 1 324 taga (o'sish 201 ta).



## Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	8 539
shundan Davlatobod t.	2 069
Yangi Namangan t.	1 926
Chust tumani	2 382
Pop tumani	2 002
Uchqo'rg'on tumani	1 927
To'raqo'rg'on tumani	1 836


Chortoq tumani	1 756
Namangan tumani	1 726
Uychi tumani	1 657
Kosonsoy tumani	1 640
Yangiqo'rg'on tumani	1 469
Norin tumani	1 404
Mingbuloq tumani	1 296

2023- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbatan (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 4 658 ta bo'lib, shundan:


- mikrofirmalar va kichik korxonalar 4 636 ta;
- yirik korxonalar 22 tani tashkil etdi.

## Shahar va tumanlar kesimida


Namangan shahar	1 219	16,8 %	Mingbuloq tumani	323	30,7 %
shundan Davlatobod t.	334	19,6 %	Pop tumani	314	19,0 %
Yangi Namangan t.	298	17,2 %	Uychi tumani	284	20,4 %
Uchqo'rg'on tumani	451	27,3 %	Kosonsoy tumani	266	19,6 %
Chortoq tumani	378	25,4 %	Norin tumani	247	21,4 %
To'raqo'rg'on tumani	372	23,7 %	Namangan tumani	242	16,3 %
Chust tumani	331	16,1 %	Yangiqo'rg'on tumani	231	19,8 %

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- yanvar holatiga 23 293 taga yetib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 8,0 foizga oshdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish – 42,9 foiz, savdo – 30,5 foiz, yashash va ovqatlanish – 17,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 5,9 foiz, hududlar kesimida eng ko'p Uchqo'rg'on 46,3 foiz, Pop 45,3 foiz, Chortoq 36,3 foiz, Norin 27,1 foiz, Mingbuloq 22,6 foiz, To'raqo'rg'on 20,8 foiz va Yangiqo'rg'on 18,0 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

## Shahar va tumanlar kesimida


Namangan shahar	7 264	Namangan tumani	1 489
shundan Davlatobod t.	1 707	Chortoq tumani	1 488
Yangi Namangan t.	1 729	Uychi tumani	1 394
Chust tumani	2 053	Kosonsoy tumani	1 355
Pop tumani	1 656	Yangiqo'rg'on tumani	1 169
Uchqo'rg'on tumani	1 653	Norin tumani	1 153
To'raqo'rg'on tumani	1 567	Mingbuloq tumani	1 052

2023- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbatan (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Shunda, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan 50 tadan 111 taga (o'sish 61 taga), axborot va aloqa sohasida 72 tadan 126 taga (o'sish 54 taga) ko'paydi.

## Shahar va tumanlar kesimida


Namangan shahar	1 211	16,8 %	Mingbuloq tumani	322	30,7 %
shundan Davlatobod t.	330	19,6 %	Pop tumani	312	19,0 %
Yangi Namangan t.	296	17,3 %	Uychi tumani	283	20,4 %
Uchqo'rg'on tumani	449	27,3 %	Kosonsoy tumani	261	19,3 %
Chortoq tumani	377	25,4 %	Norin tumani	247	21,5 %
To'raqo'rg'on tumani	370	23,9 %	Namangan tumani	242	16,4 %
Chust tumani	331	16,2 %	Yangiqo'rg'on tumani	231	19,8 %

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Namangan shahrida (31,1 foiz), Chust (8,8 foiz), Pop va Uchqo'rg'on (7,1 foizdan), To'raqo'rg'on (6,7 foiz), Namangan hamda Chortoq (6,4 foizdan) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu tumanlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50,0 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	7 192
shundan Davlatobod t.	1 684
Yangi Namangan t.	1 711
Chust tumani	2 038
Pop tumani	1 646
Uchqo'rg'on tumani	1 646
To'raqo'rg'on tumani	1 551


Chortoq tumani	1 483
Namangan tumani	1 480
Uychi tumani	1 385
Kosonsoy tumani	1 351
Yangiqo'rg'on tumani	1 167
Norin tumani	1 149
Mingbuloq tumani	1 048



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat  
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar  
2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda

### Shahar va tumanlar kesimida


Pop tumani	298
Chust tumani	267
Uchqo‘rg‘on tumani	229
Mingbuloq tumani	177
Namangan tumani	169
Namangan shahar	155
<i>shundan Davlatobod t.</i>	<i>57</i>
<i>Yangi Namangan t.</i>	<i>36</i>
To‘raqo‘rg‘on tumani	134
Uychi tumani	129
Chortoq tumani	109
Kosonsoy tumani	102
Yangiqo‘rg‘on tumani	90
Norin tumani	78



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


### Baliq ovlash va akvakultura



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda


**Shahar va tumanlar kesimida**

Namangan shahar	1 784
shundan Davlatobod t.	451
Yangi Namangan t.	526
Chust tumani	421
Namangan tumani	391
Kosonsoy tumani	377
To'raqo'rg'on tumani	349
Uychi tumani	328
Uchqo'rg'on tumani	262
Pop tumani	235
Norin tumani	234
Yangiqo'rg'on tumani	225
Chortoq tumani	202
Mingbuloq tumani	121



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi besh yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat sohasining elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini sonining o'sish sur'ati 38,5 foizga oshgan.


Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 17,8 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 95,8 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 62,8 foizni), 2,0 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (76,4 foizni), 1,5 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish (78,3 foizni) va 0,7 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 90,0 foiz) ni tashkil etgan.



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

## Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	493
shundan Davlatobod t.	146
Yangi Namangan t.	127
Uychi tumani	169
Kosonsoy tumani	160
Chust t tumani	134
Uchqo'rg'on tumani	116
Chortoq tumani	116
Pop tumani	100
Norin tumani	97
Yangiqo'rg'on tumani	88
To'raqo'rg'o tumani	73
Namangan tumani	72
Mingbuloq tumani	48



Namanganda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 52,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 69,7 foizni tashkil etgan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 15,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 94,0 foizni tashkil etgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 33,0 foiz ulushni va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 58,1 foizni tashkil etdi.

250



Fuqarolik  
obyektlarini qurish

548

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

868


Bino va  
inshootlar qurish



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

## Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	2 670
shundan Davlatobod t.	545
Yangi Namangan t.	620
Chortoq tumani	826
To'raqo'rg'on tumani	678
Chust tumani	665
Pop tumani	645
Uchqo'rg'on tumani	598
Namangan tumani	551
Norin tumani	511
Yangiqo'rg'on tumani	503
Uychi tumani	476
Mingbuloq tumani	486
Kosonsoy tumani	445



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Namanganda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 9 023 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 60,1 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 74,8 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 29,8 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 84,9 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 10,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 79,8 foizni tashkil etdi.

915

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 700

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


5 439

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

**Shahar va tumanlar kesimida**

Namangan shahar	453
<i>shundan Davlatobod t.</i>	102
<i>Yangi Namangan t.</i>	89
Chust tumani	140
Pop tumani	128
Uchqo'rg'on tumani	96
To'raqo'rg'on tumani	95
Kosonsoy tumani	71
Namangan tumani	65
Yangiqo'rg'on tumani	66
Norin tumani	64
Mingbuloq tumani	57
Chortoq tumani	48
Uychi tumani	41



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2020- yilning mos davriga nisbatan 17,9 foizga oshgan. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 6,5 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 93,5 foiz ulushini tashkil etdi.

86

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 238


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda


## Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	170
shundan Davlatobod t.	21
Yangi Namangan t.	28
Pop tumani	34
Chust tumani	34
Uchqo'rg'on tumani	27
Namangan tumani	25
Uychi tumani	23
Chortoq tumani	22
Kosonsoy tumani	18
Norin tumani	17
Yangiqo'rg'on tumani	16
To'raqo'rg'on tumani	16
Mingbuloq tumani	10



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 17,2 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 77,6 foizni tashkil etdi.


Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 37,9 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 76,1 foizni tashkil etdi. Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 44,9 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 76,8 foizni tashkil etdi.



2024- yil 1- yanvar holatiga koʻra, birlikda

## Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	280
<i>shundan Davlatobod t.</i>	70
<i>Yangi Namangan t.</i>	46
Chust tumani	63
Pop tumani	49
Kosonsoy tumani	46
Namangan tumani	45
Toʻraqoʻrgʻon tumani	45
Uychi tumani	43
Chortoq tumani	41
Yangiqoʻrgʻon tumani	31
Uchqoʻrgʻon tumani	31
Norin tumani	30
Mingbuloq tumani	25



Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 640 ta yoki 87,8 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Yoʻnalishlar boʻyicha tahlil shuni koʻrsatdiki: 95,5 foiz korxonalar sogʻliqni saqlash yoʻnalishiga toʻgʻri kelib, oʻsish surʼati 2023- yilning mos davriga nisbatan 95,9 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash yoʻnalishidagi korxonalar soni 2,5 foizni tashkil etib, oʻsish surʼati 100,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish yoʻnalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 2,0 foizini tashkil etib, oʻsish surʼati 78,9 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish

15



Yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash

18




Sogʻliqni saqlash sohasidagi faoliyat

696

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

## Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	324
shundan Davlatobod t.	99
Yangi Namangan t.	100
Chust tumani	162
Namangan tumani	82
Uychi tumani	65
To'raqo'rg'on tumani	58
Uchqo'rg'on tumani	52
Yangiqo'rg'on tumani	51
Pop tumani	50
Chortoq tumani	43
Norin tumani	31
Kosonsoy tumani	25
Mingbuloq tumani	22



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,5 foiz ulushini tashkil etdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 79,1 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 83,7 foizni;

pochta va kuryerlik yo'nalishi o'sish sur'ati 81,3 foizni tashkil etdi;

havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar o'sish sur'ati 50,0 foizni tashkil etdi;






**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma‘lumot**  
2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda

**Tadbirkorlik subyektlari soni**


**Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


## Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	1 107	Pop tumani	285
shundan Davlatobod t.	317	Chust tumani	281
Yangi Namangan t.	267	Uychi tumani	267
Uchqo'rg'on tumani	444	Kosonsoy tumani	248
Chortoq tumani	370	Norin tumani	239
To'raqo'rg'on tumani	336	Yangiqo'rg'on tumani	217
Mingbuloq tumani	290	Namangan tumani	184

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Amalda 23 293 ta tijorat korxonalar va tashkilotlarining 2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 18 044 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.


Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) qo'yidagicha bo'ldi: savdo – 39,8 foiz, sanoat – 20,7 foiz, qurilish – 7,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 7,1 foiz.

## Shahar va tumanlar kesimida


Namangan shahar	<b>6 009</b>	Uychi tumani	<b>1 130</b>
shundan Davlatobod t.	<b>1 462</b>	Kosonsoy tumani	<b>1 092</b>
Yangi Namangan t.	<b>1 467</b>	Namangan tumani	<b>1 071</b>
Pop tumani	<b>1 336</b>	To'raqo'rg'on tumani	<b>1 047</b>
Chortoq tumani	<b>1 317</b>	Norin tumani	<b>947</b>
Uchqo'rg'on tumani	<b>1 272</b>	Yangiqo'rg'on tumani	<b>939</b>
Chust tumani	<b>1 167</b>	Mingbuloq tumani	<b>717</b>

2024- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbatan (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Xususiy korxonalar** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, suda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2023- yil yanvar-dekabr oyida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 12 taga ko'paygan.


## Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	58	Uychi tumani	15
shundan Davlatobod t.	11	Kosonsoy tumani	13
Yangi Namangan t.	18	Pop tumani	13
Chust tumani	36	Norin tumani	6
Namangan tumani	26	Yangiqo'rg'on tumani	3
Mingbuloq tumani	18	Uchqo'rg'on tumani	2
To'raqo'rg'on tumani	17	Chortoq tumani	2

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar


2024-yil 1- yanvar holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan bo'lib. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Namangan shahar 934 ta, Chust 793 ta va Uchqo'rg'on tumanlarida 309 ta.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 1 515 ta, sanoat – 736 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 486 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 286 ta va qurilish sohasida – 230 ta.


## Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	<b>934</b>	Namangan tumani	<b>285</b>
<i>shundan Davlatobod t.</i>	<b>194</b>	Pop tumani	<b>266</b>
<i>Yangi Namangan t.</i>	<b>192</b>	Uychi tumani	<b>218</b>
Chust tumani	<b>793</b>	Kosonsoy tumani	<b>215</b>
Uchqo'rg'on tumani	<b>309</b>	Norin tumani	<b>160</b>
To'raqo'rg'on tumani	<b>301</b>	Yangiqo'rg'on tumani	<b>116</b>
Mingbuloq tumani	<b>292</b>	Chortoq tumani	<b>97</b>


2023- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbatan (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Savdo





Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

**Oilaviy korxon** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxon ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxon ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxon faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


## Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	51	Chust tumani	14
<i>shundan Davlatobod t.</i>	6	Yangiqo'rg'on tumani	11
<i>Yangi Namangan t.</i>	13	Chortoq tumani	5
Namangan tumani	32	Uchqo'rg'on tumani	5
To'raqo'rg'on tumani	18	Kosonsoy tumani	4
Pop tumani	15	Norin tumani	2
Mingbuloq tumani	14	Uychi tumani	1


2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 2020- yilning mos davriga nisbatan 437 taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 91 tadan 312 taga (o'sish 221 taga), sanoatda – 244 tadan 357 taga (o'sish 113 taga), yashash va ovqatlanish – 89 tadan 147 taga (o'sish 58 taga), qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 41 tadan 54 taga (o'sish 13 taga) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

## Shahar va tumanlar kesimida


Namangan shahar	235	Chortoq tumani	60
shundan Davlatobod t.	41	Chust tumani	57
Yangi Namangan t.	61	Kosonsoy tumani	37
To'raqo'rg'on tumani	192	Pop tumani	35
Namangan tumani	117	Uychi tumani	29
Yangiqo'rg'on tumani	88	Mingbuloq tumani	28
Uchqo'rg'on tumani	61	Norin tumani	21

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot


2023- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbatan (foizda)

Yillar kesimida soni



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi. Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni o‘shish sur‘ati 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda 33,3 foizga oshgan.

### Shahar va tumanlar kesimida


Namangan shahar	32	Chortoq tumani	3
shundan Davlatobod t.	9	Yangiqo‘rg‘on tumani	3
Yangi Namangan t.	6	To‘raqo‘rg‘on tumani	2
Pop tumani	5	Uychi tumani	2
Chust tumani	5	Norin tumani	1
Kosonsoy tumani	3		



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Sanoat



Tashish va saqlash



Axborot va aloqa



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 106,4 foizni tashkil etdi.

Yetakchi o'rinni 56 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 23,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Namangan iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 23,5 foiz), Turkiya (ulushi 14,6 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 6,8 foiz) va Qozog'iston (ulushi 4,7 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Shahar va tumanlar kesimida

Namangan shahar	<b>103</b>
<i>shundan Davlatobod t.</i>	<b>31</b>
<i>Yangi Namangan t.</i>	<b>21</b>
Pop tumani	<b>29</b>
Chust tumani	<b>18</b>
Kosonsoy tumani	<b>16</b>
Uychi tumani	<b>14</b>

Chortoq tumani	<b>11</b>
Yangiqo'rg'on tumani	<b>10</b>
Namangan tumani	<b>9</b>
To'raqo'rg'on tumani	<b>8</b>
Norin tumani	<b>7</b>
Uchqo'rg'on tumani	<b>6</b>
Mingbuloq tumani	<b>3</b>

*2023- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda*

	<b>Davlatlar nomi</b>	<b>soni</b>
	<b>Xitoy Respublikasi</b>	<b>17</b>
	<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>9</b>
	<b>Turkiya Respublikasi</b>	<b>8</b>
	<b>Janubiy Koreya Respublikasi</b>	<b>6</b>
	<b>Boshqalar</b>	<b>19</b>

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 117 tasi qo'shma korxonalar, 117 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

## xorijiy korxonalar

## qo'shma korxonalar

<b>63</b>	Namangan shahar	<b>40</b>
<b>18</b>	<i>shundan Davlatobod t.</i>	<b>13</b>
<b>13</b>	<i>Yangi Namangan t.</i>	<b>8</b>
<b>11</b>	Chust tumani	<b>7</b>
<b>10</b>	Pop tumani	<b>19</b>
<b>8</b>	Kosonsoy tumani	<b>8</b>
<b>6</b>	Yangiqo'rg'on tumani	<b>4</b>
<b>4</b>	To'raqo'rg'on tumani	<b>4</b>
<b>4</b>	Uchqo'rg'on tumani	<b>2</b>
<b>3</b>	Norin tumani	<b>4</b>
<b>3</b>	Uychi tumani	<b>11</b>
<b>2</b>	Namangan tumani	<b>7</b>
<b>2</b>	Chortoq tumani	<b>9</b>
<b>1</b>	Mingbuloq tumani	<b>2</b>

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes hamda sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- yanvardagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Namangan viloyati statistika  
boshqarmasi Statistik registrlarni  
yuritish boʻlimi  
Tel.: 69 227-84-96